



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH
MARKAZI**

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

D 26

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori, professor

M.Umirzoqova, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-774-7

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

O‘ZBEKISTONDA ARAB YOZUVI ISLOHOTI

Inomjon AZIMOV*
Gulbahor AZIMOVA*

Annotatsiya

Arab yozuvi ming yildan ortiq davr mobaynida juda ko‘p xalqlar, jumladan, o‘zbek xalqi uchun ham asosiy yozuv sifatida amalda bo‘lgan. O‘tgan asrning boshlarida turkiy xalqlarda jadidchilik harakatining yuzaga kelishi bu muammo asosiy hal qilinishi lozim bo‘lgan, kelgusi taraqqiyot uchun eng zarur bo‘lgan masala sifatida kun tartibiga chiqdi. Jadidlar tomonidan yangi usuldagi maktablarning ochilishi jarayonida yozuvning kamchiliklari, ayniqsa, o‘zbek tilidagi unli tovushlar uchun harflarning yetarli emasligi, ba’zi harflarning ham unli, ham undosh tovushlar uchun olingani ta’lim jarayonida jiddiy qiyinchiklarni keltirib chiqardi.

Yozuvning kamchiliklari, uni isloh qilish zarurati bo‘yicha matbuotda mutaxassislarning maqolalari e’lon qilinadi. Natijada Fitrat boshchiligidagi “Chig‘atoy gurungi” tomonidan alifbo loyihasi ishlab chiqiladi.

Maqolada yozuv islohoti jarayonlari, uning yutuq va kamchiliklari tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: jadid, alifbo, imlo, yozuv, arab yozuvi, tovush, unli tovush, undosh tovush, fonema, harf, “Chig‘atoy gurungi”.

Reform of The Arabic Script in Uzbekistan

Abstract

For more than a millennium, the Arabic script served as the principal writing system of the Uzbek people and many other communities across the Islamic world. In the early twentieth century, however, the emergence of the Jadid movement among Turkic intellectuals positioned script reform as a decisive cultural and educational priority. The establishment of new-method schools by the Jadids exposed the structural deficiencies of the Arabic script, including the inadequate representation of vowel sounds in Uzbek and the ambiguous use of several letters for both vowels and consonants. These shortcomings not only hindered literacy acquisition but also posed systemic challenges to the modernization of education.

Public debates in the press reinforced the urgency of reform, leading to the development of an alphabet project by the “Chig‘atoy Gurungi” circle under the leadership of Fitrat. This article examines the trajectory of script reform during this

* Filologiya fanlari doktori, professor, Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU, Toshkent, O‘zbekiston, ORCID: 0009-0001-4803-7166, inomjon66@mail.ru.

* Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti akademik litseyi o‘qituvchisi.

transformative period, critically assessing its achievements and limitations. By situating the reform within the broader intellectual and cultural dynamics of early twentieth-century Central Asia, the study highlights its role in shaping the modernization of Uzbek literary culture and national identity.

Keywords: Arabic script, Jadid movement, Uzbek language, script reform, Chigʻatoy Gurungi, Fitrat, Central Asia, educational modernization.

Kirish

Arab yozuvi ming yildan ortiq davr mobaynida oʻzbek xalqi va boshqa koʻplab musulmon xalqlarining asosiy yozuv tizimi sifatida xizmat qilgan. Bu yozuv diniy, madaniy va maʼrifiy hayotning ajralmas qismi boʻlib, islomiy merosning avloddan avlodga yetib kelishida beqiyos oʻrin tutdi. Biroq XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Turkiston hududida jadidchilik harakati paydo boʻlishi bilan arab yozuvining kamchiliklari tobora dolzarb masalaga aylandi. Xususan, oʻzbek tilidagi unli tovushlarning yetarli darajada ifodalanmasligi, ayrim harflarning ham unli, ham undosh tovush sifatida qoʻllanishi savod oʻrgatish jarayonida jiddiy qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi.

Mazkur muammo nafaqat taʼlim-tarbiyada, balki xalqning savodxonlik darajasini oshirish va milliy madaniyatni rivojlantirishda ham asosiy toʻsiq sifatida koʻrildi. Jadid maʼrifatchilari bu masalani hal qilish uchun yozuv islohotini kun tartibiga olib chiqdilar. Matbuot sahifalarida arab yozuvining kamchiliklari va uni isloh qilish zarurati haqida maqolalar chop etildi. Natijada Fitrat rahbarligidagi “Chigʻatoy gurungi” aʼzolari tomonidan yangi alifbo loyihasi ishlab chiqildi.

Shu bois, yozuv islohoti masalasi XX asr boshlarida nafaqat lingvistik yoki pedagogik muammo, balki millatning kelgusidagi taraqqiyoti bilan chambarchas bogʻliq ijtimoiy-madaniy jarayon sifatida maydonga chiqdi. Ushbu maqolada yozuv islohoti jarayonlari, uning yutuq va kamchiliklari tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

Arablarda yozuv islohotlari

Arab yozuvining oʻzi finikiy yozuvidan kelib chiqqani, arablar uni oʻzlariga moslashtirish uchun bir necha islohotlar qilgani aytiladi (Shakirjan Rahim, 1922). F.Ogʻazoda bu islohotlarni quyidagicha tasvirlaydi:

1. Maʼlumki, barcha semit alifbolari 22 harfdan iborat boʻlgan. Arab alifbosi ham, semit alifbolaridan biri sifatida, dastlab 22 harfdan tashkil topgan. Arablar, eng avvalo, alifboni oltita harf (“ث”, “خ”, “ذ”, “ض”, “ظ”, “غ”) bilan toʻldirish orqali dastlabki islohotni amalga oshirdilar. Natijada harflar soni 28 taga yetdi.

2. Keyinchalik forsiy va turkiylar alifboga yana toʻrtta harf (“پ”, “ژ”, “گ”, “چ”) qoʻshib, jami harflar sonini 32 taga yetkazganlar.

3. Dastlabki davrlarda asosiy yozuv turi “ko‘fiy” yozuvi bo‘lgan va unda nuqtalar bo‘lmagan, bu esa, arab bo‘lmagan millatlar uchun qiyinchilik tug‘dirgan, ikkinchidan, faqat undoshlardan iborat bo‘lgan yozuv o‘qish, o‘rganishni yanada qiyinlashtirgan. Natijada harflarga nuqtalar belgilangan hamda o‘qishni osonlashtirish maqsadida satrosti va satrusti belgilari (fatha, kasa, zamma, tashdid, tanvin, hamza kabi) qo‘yildi.

4. Oxirgi islohot alifbodagi harflar o‘rnini almashtirish bo‘ldi. Bunda o‘xshash bo‘lgan, faqat nuqtalari bilan farqlanuvchi harflar bir joyga keltirildi. Bu esa, pedagogik nuqtayi nazardan bolalarning harflarni tez eslab qolishiga zamin yaratdi (Агазаде, Каракашлы, 1928, 2-7-bet). Bunday fikrlarni bizning jadid ma’rifatparvarlarimiz ham aytib o‘tadi: “Mana shu yerda bir az to‘xtamag‘imiz kerak: bilamiz, bizning yozuvimizdag‘i harflar arab harflaridir. Arab harflarining esa qiyinlig‘i, qaidasizlig‘i ayricha bir masaladir. Bashida arab harflarining nuqtasi-da, harakalari-da yo‘q edi. Bu harflarning zammalari, kasrlari, fathalari yaxud sakinlari bo‘lg‘anin bilib bo‘lmas edi. Arablar ilman yuksalganlardan keyin bu qiyinliklarni angladilar. O‘zlarini bu baladin qutqarmaq uchun tushundilar, harflarg‘a nuqtalar bilan harakalar qo‘ydilar” (S., 1921).

Yozuv islohi masalasi dastlab Qrimda ko‘tariladi. Atoqli tatar ma’rifatparvari I.Gaspirinskiy isloh qilingan yozuvni o‘zi tashkil qilgan “Tarjimon” gazetasida targ‘ib qiladi, o‘zi ochgan jadid maktablarida ta’lim mazkur yozuv asosida olib boriladi. Isloh qilingan yozuvda kitoblar, jurnallar nashr qilindi (Уалтаева, 2017).

I.Gaspirinskiy g‘oyalaridan ilhomlangan mashhur ozarbayjon shoiri Mirzo Fatali Oxundov ham yozuv islohini targ‘ib qila boshlaydi. U arab yozuvining quyidagi noqulayliklarini aytib o‘tadi:

- “Har bir tovush uchun alohida alomat olinishi lozim bo‘lgan holda, bu alifboda bunday imkoniyat yo‘q.

- Ko‘p unli tovushlar yozuvda ifodalanmaydi.

- Ba’zi harflar ayni bir shaklda yoziladi, faqat nuqtalari bilan farq qiladi.

Bu alifboda harflar so‘zning boshida, o‘rtasida, oxirida va alohida shakllarda yoziladi, bu ham o‘qish va yozishda qiyinchilik tug‘diradi” (Ibrahimov, 2018, 37-bet). Keyinchalik bu harakat Qozon, Ufa, Boku shaharlariga, keyinchalik O‘rta Osiyoga ham keng yoyiladi (Azimov, 2024, 42-49-bet).

Yozuv islohotining sabablari

Boshqa turkiy xalqlar kabi O‘zbekistonda ham alifboni isloh qilish, imloni yengillashtirish masalasi kun tartibiga chiqadi. Qardosh turkiy tillardagi muammolar o‘zbek tilida ham mavjud edi, ya’ni arab tilining butunlay boshqa til oilasiga mansubligi ham mazkur alifbo o‘zbek tilining ichki qonuniyatlarini to‘la ochib bera olmas edi. Bu haqda Elbek shunday yozadi: “Zera, bir tilni va bir imlani qatarg‘a kirmagi uchun uni negiz va yo‘sung‘a maslabyazilg‘an bo‘lmag‘i krakdur: qaidasiz

soʻzlangan soʻz va yozilgan yozuv ikkinchi bir til va imlagʻa qatishgʻach asgʻ (fayda) berishi oʻrnigʻa unida yoʻldan chiqaradur. Oʻzi kabi yoʻlsiz va yoʻsunsiz bir halgʻa keltiradiur”.

“S” imzoli maqola muallifi ham ayni shunday fikrlarni biladiradi: “Bashqa ellarning yazuvi bilan alifbalarida koʻrulgan tartib, intizam va qoʻl-ayaq bizning yazuvimizda, bizning alifbamizda yoʻq! Bashqalarning alifbalari, yazuvlari tartibli, intizamli boʻlur, bizniki tartibsiz, buzuq ham, qiyin. Uzun soʻzning qisqasi: Yazuvimiz qaidasiz, imlamiz buzuqdir” (S., 1921).

Shokirjon Rahimiy arab yozuvining quyidagi kamchililarini sanab oʻtadi: 1. Alifboning qiyinligi, qoidaning yoʻqligi. 2. Unlilarning yetarli emasligi. 3. Harflar shaklining koʻpligi (Rahimiy, 1922).

Fitrat arab yozuvini isloh qilish sabablari sifatida quyidagilarni koʻrsatib oʻtadi:

1. Arab yozuvi oʻzbek tili nutq tovushlariga moslashtirilmay, arab alifbosida qanday boʻlsa, oʻzbek tilida shunday holatda qoʻllanilib kelinayotganligi. Maʼlumki, arab alifbosii kam unlili va koʻp undoshli somt tillariga moʻljallangan. Arab yozuvi oʻzbek tilining fonetik xususiyatlarini toʻla ifodalay olmaydi. Oʻzbek tilidagi unli tovushlarni yozuvda ifodalash uchun arab alifbosidagi belgi-shakllar yetishmaydi.

2. Arab tilida choʻziq va qisqaligi bilan farqlanuvchi atigi uchta unli fonema bor: *a, i, u*. Yozuvda choʻziq unlilar ifodalanadi, qisqa unlilar harakat bilan beriladi va yozuvda ular, koʻpincha, ifodalanmaydi. Bu esa, savod chiqarish ishlarida qiyinchilik tugʻdiradi.

3. Ayrim unli va undoshlar shaklining bir xilligi, ularning alohida belgi-shakllar asosida farqlanmasligi.

4. Ayrim undoshlarning yozuvda ikki xil (*t, h*), uch xil (*z*) belgi-shakl bilan ifodalanishi.

5. Arab tiliga xos boʻlgan chuqur boʻgʻiz portlovchisi va sayoz boʻgʻiz portlovchisini ifodalovchi ayn va hamza harflarining mavjud boʻlishi.

6. Turkiy tillar uchun, shu jumladan, oʻzbek tili uchun ham muhim ahamiyatga ega boʻlgan unlilarning qattiq-yumshoqlik, keng-torlik darajasini arab alifbosida berishning imkoniyati yoʻqligi.

7. Arab alifbosidagi harflarning yozuvda toʻrt shaklda boʻlishi.

8. Arab yozuvi koʻp undoshli va kam unlili somt tillariga moslashgan va shuning uchun koʻp unlili turkiy tillar tizimiga mutlaqo mos emasligi (Sayidov, 2001, 47-bet).

Yozuv islohida quyidagi masalalarga alohida eʼtibor qaratish lozimligini aytadi:

1. Arab yozuvini oʻzbek tilining tovush tizimiga moslashtirish, uni jonli talaffuz va soʻzlashuv tiliga yaqinlashtirish.

2. Arab alifbosida oltita unli (*o, a, ə, u, i, e*) bo'lishi va yozuvda ularni alohida shakl-belgilar bilan ifodalash.

3. Arab harflari ikki xil shaklda, ya'ni, alohida hamda so'z boshida shaklida bo'lishi.

4. Arab yozuvidagi ba'zi unli va undoshlar shakllari uchun alohida shakllar belgilash yoki hech bo'lmaganda ularni farqlash uchun muayyan harakatlar orqali ifodalash (Sayidov, 2001, 48-bet).

Ana shunday bahs-munozaralar natijasida arab yozuvi islohi amalga oshiriladi. Fitrat boshchiligidagi "Chig'atoy gurungi" tashkiloti isloh qilingan yozuv loyihasi hamda mazkur yozuv asosidagi imlo qoidalari ishlab chiqiladi. Mazkur loyihalar 1921-yilda Toshkentda bo'lib o'tgan til-imlo qurultoyida Fitrat tomonidan taqdim qilinadi.

Alifboga kiritilgan harflar xususida

"Chig'atoy gurungi" tomonidan o'zbek tilidagi unli tovushlarni ifoda qilishi uchun quyidagi harflar tavsiya qilinadi:

كۆرماك (ko'rmak), قۇيماق (qo'ymaq), قۇل (qo'l), سۇڭ (so'ng), كۆڭۇل (ko'ngul) so'zlaridagi birinchi bo'g'imdagi to'luq o'trular – ئۇ. Uni "zammayi naqila" deb ataydilar. Bu harf *o* unlisi uchun qabul qilingan.

يۇگۇرماك (yugurmak), سۇت (sut), كۇل (kul) so'zlaridagi yengil (ingichka) o'trular – ئۇ. Buni "zammayi hafifalar" deb ataydilar. Bu harf *u* unlisi uchun qabul qilingan.

بازارغا (bazarg'a), باققا (baqqa), ئال (al), قال (qal) so'zlaridagi to'liq ustlar – ئ. Bularni "fathayi mamduda" deb ataydilar. Bu harf yo'g'on *a* unlisi uchun olingan. H.Jamolxonov bu harf haqida gapirib, u yarim lablangan *o-ɔ* unlisi uchun qabul qilinganini aytadi (Jamolxonov, Sapayev, 2007, 9-bet), lekin yarim lablangan *ɔ* unlisi bu davr tilida qo'llanmaganiga e'tibor qilinsa, bu fikr xato ekanligi anglashiladi.

ئانا (ana), مانا (mana), گال (gal), ئايلانغان (aylangan) so'zlaridagi ustlar – ئ. Bularni "fathayi hafifa" deb ataydilar. Bu harf ingichka "ə" uchun olingan.

كېل (kel), بېل (bel), بېر (ber) kabi to'la astlar – ئ. Bularni "kasrayi saqila" deb ataydilar. Bu harf *e* tovushi uchun qabul qilingan.

بىلاک (bilak), تىلاک (tilak) so'zlarining birinchi bo'g'imlaridagi qisqa astlar – ئ. I tovushu uchun olingan (1921-yil yanvar ayida bo'lg'an birinchi o'lka qurultayining chiqarg'an qararlari, 1922, 14-bet).

"S" imzoli shaxs tomonidan "Qizil O'zbekiston" gazetasining 1921-yil 5-yanvar sonida e'lon qilingan "Tashkentda birinchi imla kengashi o'tirishi" maqolasida ham o'zbek tili imlosini mukammallashtirish, mavjud unilarga harflar belgilanishi kabi masalalar yoritiladi. Milliy fonetikaga kiritilgan yangi harflar misollar bilan tushuntirib beriladi:

سۆڭ (qo‘l), قۇل (qo‘ymaq), كۆيمك (ko‘bak), كۆبرك (ko‘brak), سۆڭ (so‘ng), كۆڭل (ko‘ngul)” so‘zlaridagi birinchi bo‘g‘unlarning to‘lu o‘trulari (zammayi naqila) – ئۇ

سۆت (sut), قۇل (qul), كۇل (kul), گۇل (gul)” so‘zlarida yengil o‘trular (zammayi hafifalar) – ئۇ

قۇل (qal), ئال (al), بالغا (balg‘a), بازئاردا (bazarda), ئا – mamdudalar)

ئەيلىنگەن (aylangan), كەل (kal), ئەنە (ana), مانە (mana) so‘zlarida qisqa ast (fathati hafifalar) – ئە

سېپ (sep) kabi to‘la astlar (kasrati naqila) – ئې

سنىق (siniq), تىلك (tilak), بىلك (bilak), كەلدى (keldi), ئوقۇدى (o‘qudi), بالاسى (balasi)” so‘zlarining birinchi bo‘g‘unlarida ham bo‘lg‘an qisqa astlar (kasrati hafifalar) – ې (Tashkandda birinchi imla kengashi o‘ltirishi, 1921).

E’tibor qilinsa, har ikki manba bo‘yicha ham unlilar qalinlik ingichkalikka ajratilmoqda. ئۇ (ko‘brak), كۆيمك (ko‘bak), قۇل (qo‘l), قۇل (qo‘ymaq) unlilari qattiq, ئۇ (ber), ئېل (el), كېل (kel), بالغا (balg‘a), بازئاردا (bazarda), سۆت (sut), مانە (mana), ئەنە (ana), تىلك (tilak), كەلدى (keldi) unlilari esa ingichka (yumshoq) sifatida talqin qilingan. Unlilarning qalinlik-ingichkalikka qanday tamoyillar asosida ajratilishiga izoh berilmaydi hamda ko‘p savollar tug‘ilishiga olib kelgan.

Masalan, qalin deb e’tirof etilgan ئۇ (o‘) unlisida كۆبرك (ko‘brak), قۇل (qo‘l), قۇل (qo‘ymaq) so‘zlaridagi ئۇ (o‘) unlisi talaffuzi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Ingichka unli sanalgan ئۇ (u) unlisi haqida ham shunday fikrlarni aytish mumkin, ya’ni قۇل (qul), كۇل (kul) so‘zlaridagi mazkur unli birinchisida qattiq, ikkinchi so‘zda yumshoq unli hisoblanadi.

Mazkur 6 unli xususida to‘xtalgan Elbek ham shunday fikrlarni bildiradi:

“1) ikki ust cho‘zg‘i ئۇ qalin so‘zlarda keladir, misal: *qara, qalpaq, talqan, alg‘an*. ئۇ ingichka so‘zlarda keladir, misal: *ana, mana, kana, pana, pakana, yagana*.

2) Ast cho‘zg‘ilar ئۇ, ې bulardan ئۇ qalin ast sanaladir. Misal: *kel, sel, bel* kabi. ې ingichka ast sanaldir, misal: *bildi, ildi* kabi.

3) O‘tru cho‘zg‘ilar ئۇ, ئۇ bulardin ئۇ qattiq o‘tru sanaladir, misal: *qo‘l, ko‘l, yo‘l, bo‘l* kabi. ئۇ esa ingichka ast sanaladir, misal: *tul, qul, yul, yur* kabi” (Bobomurodova, 2001, 41-bet).

Keltirilgan unlilardan faqat ئۇ, ئۇ unlilarigina qalinlik-ingichkalik bo‘yicha to‘g‘ri tasnif qilingan. Aslida Fitrat boshchigidagi yangi imlochilar faqat “ust cho‘zg‘ilarini o‘runli yazmaq uchun so‘zlarning qalinlig‘i, ingichkaligi(ga) e’tibar etilsin” degan taklifni berganlar, boshqa unlilar haqida fikr bildirilmagan.

Shokirjon Rahimiy ham ayni shu ust cho‘zg‘ilardagi qalinlik-ingichkalik masalasiga to‘xtaladi: “So‘z aralarida kelgan كېتگەن (ketgən), كېلگەن (kelgən)ga o‘xshash so‘zlarni o‘zlarining tabiiy hallaridan chiqarib كېتگان (ketgan), كېلگان (kelgan) suratida yazamiz. Shuningdek, “sarp” darslarida qanday so‘zda غا (g‘a), qanday so‘zda گە (gə) ishlatishni ham masdarlarda qanday so‘zlarda ماق (maq) va qanday so‘zlarda مەك (mæk) ishlatuni diqqatg‘a almaymiz, albuki, eski adabiyatning ba‘zilarida bu to‘g‘rida o‘zlari uchun tutulg‘an bir yo‘llari bardek ko‘rinadi. Mana shuning uchun so‘zlarni ba‘zi belgilari va aytishlarig‘a qarab qalinliq, ingichkalikka ayirishg‘a majburiyat bardir” (Shakirjan Rahim, 1922).

Yuqoridagi holatni o‘zbek tilshunosligining endi shakllanayotgani, hali o‘zbek tili fonetikasi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmagani, unli, undoshlar bo‘yicha ilmiy xulosalar bera oladigan tilshunoslar yetishib chiqmagani bilan izohlash mumkin.

Xulosa

Isloh qilingan alifboni amaliyotga joriy qilish qiyinchilik bilan kechdi, chunki bu masala bo‘yicha jadidlar o‘rtasida turlicha qarashlar mavjud edi. Ikkinchidan, bu masalalaga din vakillarining qarashlari o‘ta salbiy edi. Arab alifbosini o‘zgartirish muqaddas Qur‘on harflarini o‘zgartirish sifatida baholangan. Uchinchidan, o‘sha vaqtda Turkiston, Buxoro, Xorazm respublikalari mavjud bo‘lib, Turkistonda chiqarilgan qoidalar ularga tatbiq etilmasdi.

Isloh qilingan yozuv qariyb sakkiz yil davomida amalda bo‘lib, ta‘lim-tarbiya jarayonida foydalanilib kelingan, bu yozuvda kitoblar, gazeta-jurnallar nashr qilingan bo‘lsa-da, jadidlar ko‘zlagan natijani bermadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Shakirjan Rahim (1922). O‘zbek imlasi to‘g‘risida asoslar. *Qizil bayraq*, № 155.
- Агазаде Ф. Каракашлы К. (1928). *Очерк по истории развития движения нового алфавита и его достижения*. Издание ВЦК НТА.
- S. (1921). Imla haqida birinchi kengash o‘ltirishi. *Qizil bayraq*, № 10.
- Уалтаева А. (2017). Исторические аспекты перехода на латиницу. *Scientific E-journal “edu.e-history.kz”*.
- İbrahimov. (2018). *Türk xalqlarının ortaқ әліфба, имла вә ünsiyyät dili*.
- Azimov I. (2024). *XX asr boshlarida o‘zbek tilshunosligining rivojlanish yo‘nalishlari*: Filol. fan. doktori (DSc) diss... Toshkent.
- Elbek. (1920). Imlo va til qurultoyining chaqirilishi oldidan. *Ishtirakiyun*. № 240.
- Rahimiy. (1922). O‘zbek imlasi to‘g‘risida asoslar. *Qizil bayraq*, № 155.
- Сайидов Ё. *Фитрат бадиий асарлари лексикаси*: Филол. фан. номз. ... дисс. Тошкент.
- Жамолхонов Х., Сапаев Қ. (2007). *Имло муаммолари*. Тошкент.
- 1921-yil yanvar ayida bo‘lg‘an birinchi o‘lka qurultayining chiqarg‘an qararlari. *Turkistan jumhuriyatining nashriyati*.
- Tashkandda birinchi imla kengashi o‘ltirishi. (1921). *Qizil bayraq*, № 11.
- Элбекнинг тилишуносликка оид асарлари. (2001). (тўпловчи: Ш.Бобомуродова). Тошкент.